

**Qurbanova Durdona Komiljon qizi**  
*Ozbekiston Milliy univrsiteti Xorijiy filologiya fakulteti 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tili o'qitish metodlari haqida atroflicha ma'lumotlar keltirilgan.Ushbu maqolada bolalarga ingliz tilini o'rgatishda bolaning psixologiyasiga ham qiziqqan holda ish olib borish haqida hamda qanday qiziqarli mashqlardan foydalanish mumkinligi haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

**Kalit so'zlar:** metodlar, til texnikasi, grammatika, tinglab tushunish, mashqlar, psixologiya

### Kirish

Bugungi kunda O'zbekistonda xorijiy tillarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.Hayotimizning turli sohlarida u biznes sohasi bo'ladimi yoki ta'lim sohasimi ingliz tili hamda rus tiliga bo'lgan moyillik sezilmoqda. Ayniqsa,kundan kunga chet davlatlari bilan hamkorlikda turli sohalarga o'zgarishlar olib kirilmoqda.Bu o'z-o'zidan bolalarga boshlang'ich sinf oaytidanoq xorijiy tillarni o'rganish talab etilmoqda.Bundan tashqari psixologlar ham bolalarga hatto maktabgacha ta'lim muassasalaridanoq xorijiy til o'rgatishni tavsiya qilmoqdalar,chunki bolalarning miyasi kattalarnikiga qaraganda yangi ma'lumotlarni tez va oson qabul qila oladilar shu o'rinda boshqa tilni ham tez o'rganishadi.

### Tadqiqot materiallari va metodologiyasi

Ma'lumki,Sovet rossiyasi hulmronligi paytida rus tilini o'rganisha bo'lgan talab kuchaygan,chunki barcha davlat hujjatlari,darslar rustilda olib borilgan.Ammo hozirgi kunda rus tili o'z o'rnini ingliz tiliga bo'shatib bermoqda.Hozirgi kunda yoshlarimiz ingliz tilidan turli IELTS,CEFR kabi imtihonlardan o'tib yuqori ballar to'plab,katta yutuqlarga erishishmoqda.Hattoki,televideniyeda ham ingliz tilida kinolar,multfilmlar berilmoqda.Bunday yondashuv albatta bolalardan boshlang'ich sinf paytlaridanoq,ya'ni 1-2 sinflardanoq ingliz tilini o'rganishni talab etmoqda. Bunday natijalarga erishishda albatta o'qituvchilarning hissasi kattadir.Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yin-kulguga berilgan,bir xil narsadan dareov zerikib qolishadi,shuning uchun o'qituvchidan juda katta mas'uliyat talab qilinadi.Birinchidan,o'qituvchi til texnikasidan habardor bo'lishi zarur.,„Til texnikasi“ tushunchasi. Til o'qitish metodikasiga bag'ishlangan yozma manbalar va muallimlarning kundalik muloqotlarida „o'qish texnikasi“, „yozish texnikasi“ kabi terminlar tez-tez uchrab turadi. O'qish texnikasi deganda, harf/ harf birikmasining tovush bilan munosabati, yozish texnikasida esa harfning yozilish qoidalari tushuniladi. Ushbu terminlar qatori „o'qilish qoidasi“%, „yozilish qoidasi“ singari sinonim lar ham ishlatiladi. Bu ikki m etodik term in qatoriga „talaffuz texnikasi“ni qo'shish o'rinnlidir. Uni, boshqacha qilib, „artikulatsiya qoidasi“ deyish ham mumkin. Shunday qilib, til materialini egallahda aytish (talaffuz)ni, o'qishni va yozishni ham o'zlashtirish bilan mashg'ul bo'linadi va har uchalasini biriktirib, yagona termin — „til texnikasi“ nomi bilan yuritiladi.

Rus pedagogi K.D. Ushinskiy :«Biz pedagoglarga unday yoki bunday qilinglar deb aytmaymiz, ammo biz ularga oczingiz boshqarmoqchi bo'lgan psixik hodisalarning

qonunlarini o'rganing va bu qonunlarga amal qiling hamda ularni tatbiq qilmoqchi bo'lgan sharoitlarini hisobga olib ish qiling, deb aytamiz»-deb ta'kidlab o'tgandi.Bu fikrlardan kelib chiqib shuni ayta olamanki,o'qituvchi nafaqat bilim bera olishi kerak,balki u kuchli psixolog ham bo'lishi kerak,chunki dars o'tganda 15ta o'quvchining barchasi bir xil qabul qilmaydi,ba'zilarida kamchiliklar bo'lishi mumkin yoki ba'zi o'quvchilarning oilasida muammo bo'lsa darsni o'rganishga bo'lgan xohishi pasaygan bo'lishi mumkin.O'qituvchi mana shu kamchiliklarni hisobga olagan holda ta'lim berishi lozim.

Ta'lim va psixik o'sish bir-biriga mos keladigan nazariyaning namoyandalari (amerikalik psixologlar Djeyms, Torndayk va ingliz psixologi Makdugall)ning da'vo qilishicha:

1) ikkala jarayon bir-biriga yaqin va parallel holda boradi — ta'lim-tarbiya bilan psixik o'sish qadam-baqadam boradi;

2) ta'lim va psixik o'sish bir vaqtida amalga oshadi. Bu nazariya ikki jarayonni aralashtirib, bir-biriga tenglashtirib qo'yadi. Bu ta'lim jarayoni o'rganilsa, psixik o'sish jarayoni ham o'rganilgan bo'ladi, degan xulosaga olib keladi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

O'qituvchi o'quvchilarga shunchaki dars o'tib chiqib ketmasligi kerak, aksincha,u bolalar bilan birga yashashi kerak,ularni chinakamiga yaxshi ko'rib bor mehrini berishi kerak.Yuqorida ta'kidlab o'tganimdek,bolalar 7-10 yoshlarida juda ham o'yinqaroq bo'lishadi,bir xil narsadan zerikishadi, shuning uchun darsni ularning tabiatiga moslab o'tish talab qilinadi.Masalan,"Animals" mavzusini o'rgatishda turli o'yinlardan foydalanish mumkin:

a)Hayvonlarning rasmlarini yopishtirib qo'yib ularning tagiga inglizcha nomini yozish kerak;

b)Darslikda berilgan hayvonlarning ovozlari audosini o'quvchilarga eshittiriladi va bolalar shu ovoz qaysi hayvonga tegishli bo'lsa o'sha hayvonni belgilashadi;

d)O'quvchilarga hayvonlar nomlari yashiringan krossvordlar tarqatiladi,bolalar ana shu hayvonlar nomlarini topishlari kerak;

"Fruits" mavzusida ham turli o'yinlar tashkil qilish mumkin:

a)Mevalar olib kelinadi va ikkita o'quvchi doskaga chiqadi,ko'zi bog'lanadi va meva hidlatiladi.Bola esa o'sha mevani hidlab inglizcha nomini aytishi kerak;

b)Bolalarga mevalar rasmlari tushirilgan qog'oz beriladi va o'qituvchi qaysi mevaning inglizcha nomini aytsa,o'quvchilar o'sha mevalarni topib rangini bo'yashlari kerak;

Salomlashish.O'qituvchi sinfga kirganda barcha o'quvchilar doimo "Assalomu alaykum"-deyishadi.Shu salomlashishni yana ham qiziqarliroq qilish uchun qo'shiq o'rgatish mumkin.Masalan,

Hands clap,

Feet tap,

It's time to sing hello.

To you and you and you and you

All of the people that we know.

So, let's all come together,

And raise our voice in song.

Let's have a good time in music,  
while we dance and play along.

Sit up tall.

Let's have a ball.

It's time to sing hello.

To you and you and you and you

All of the people that we know.

Hello everybody,

Hello everybody,

Hello everybody,

It's so nice to see you today.

Hey, hey!

Shu qo'shiqni aytib salomlashishsa,dars ham qiziqarliroq bo'ladi,ustozning ham bolalarning ham kayfiyati ko'tarilib,yoqimli holatda dars boshlanadi.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilida so'zlashuvni o'rgatish anchagina mashaqqat talab qiladi,chunki ingliz tilining boshqa rus,nemis tillaridan farqi shundaki,ingliz tilida so'z formasi boshqacha uning talaffuzi esa umuman boshqacha.Shuning uchun bolalar ingliz tilida talaffuz qilishda qiynaladilar.Masalan,ingliz tilida oddiy *a* artikel [e] deb talaffuz qilinadi,lekin *saw* so'zida u [so]deb tallaffuz qilinadi.Bolalar e deb o'qilar ekan deb eslab qolishadi va qaysi so'zda a harfi bo'lsa e deb o'qishadi va xato qilishadi.Chet tilda nisbatan ravon va yetarli tezlikdagi talaffuzni egallash asosiy talabdir. Bu, birinchidan, suhbatdoshlar birbirlarini anglashlarini ta'minlasa, ikkinchidan, nutqning o'rtamiyona sur'atini ko'nikma tarzida egallahni taqozo etadi (ma'lumki, chet tildagi nutq sur'ati bir daqiqada 110—150 ta so'zni aytan olish demakdir: ingliz va fransuz tillarida o'rtacha 130—150 ta so'z, nemischada esa 110—130 ta so'z talaffuz etilishini ilmiy tajribalar isbotlagan).Shuning uchun o'qituvchi bolalarga so'zlarning talaffuzini o'rgatishda katta e'tibor qaratish kerak,ya'ni alohida lug'at daftari yangi so'z yozdirib uning oldidan uning o'qilishini ham yozdirib o'rgatish kerak.Agar bolalar transkripsiya harflariga tushunishga qiyalsalar,so'zni qanday eshitsa shunday yozib eslab qolishi mumkin va bu ancha osonlik yaratadi.Har yangi dars o'tishdan oldin oldingi mavzuda o'tilgan yangi so'zlarni o'quvchilar bilan birga aytib takrorlasa,osonroq esda qoladi.

Nutqni tinglab tushunish deganda, ovozli nutq (gapis) chog'ida qulqoq solish, idrok etish va fahmlash anglanadi.

Tinglab tushunishga oid qiyinchiliklar:

1. Tilga oid shakliy qiyinchiliklar;
2. Mazmunga doir qiyinchiliklar;
3. Nutqiy idrok qilishning shart-sharoitidagi qiyinchiliklar;
4. Nutq shakliga oid qiyinchiliklar;
5. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan sodir bo'ladigan qiyinchiliklar;
6. Audiomatn tuzilishiga oid qiyinchiliklar;

Shu qiyinchiliklarni hisobga olgan holda o'quvchilarga tinglab tushunishni o'rgatishda shunday audiomatnlar tanlash kerakki,u o'quvchining yoshiga mos,o'xshash talaffuz

qilinadigan so'zlar bo'lmasligi,gapirayotgan odam bolalarga tushunarli gapirishi kerak,chunki boshqa millat vakillari ingliz tilida so'zlashuvda ko'p talaffuzda xato qilishadi,ular qancha harakat qilishmasin ingliz odamlari kabi to'g'ri urg'u qo'yib gapirishga qiynalishadi.Bu albatta o'quvchilarning tushunishiga ham muammo tug'diradi.

Grammatikani boshlang'ich sinflarga o'rgatishda albatta ularning imkoniyatidan kelib chiqqan holda avval oson mavzularni o'tib,keyin murakkabiga o'tish kerak.Albatta,bu grammatik hodisalarni eslab qolishda mashqlar katta ahamiyatga ega,chunki mavzuni shunchaki og'zaki tushuntirsangiz bu darsdaesda qoladi,lekin keyingi darsda eslolmaydi.Mashqalar orqali tushuntirilsa,o'tilgan grammatik hodisalarni amalda qo'llasa,yaxshiroq tushunib eslab qola oladi.Quyida mashqlardan foydalanish mumkin:

1. Matnda grammatik hodisani tanib olish (mas. matnni o'qing, falon grammatik hodisani topib aytинг/ko'chiring). Yasalish alomatlarini aytib berish ham mumkin;
2. Grammatik hodisani taxminlab bilish imkoniyati mavjud. (Mas. matn yoki mikromatn (jumla)ni o'qib, tushirib qoldirilgan qismini topib aytish/yozish.)

3.O'xshash grammatik hodisalarni farqlash. Matnni o'qib, to'g'ri va noto'g'ri fe'llarni ko'chirish,turli jumlalardagi fe'l zamonlari farqini topish kabilar;

4.O'rganilayotgan grammatik hodisa o'qilayotgan matnni tushunishga imkon yaratadi;

Muhokama ham til o'rganishda juda katta rol o'ynaydi,chunki o'quvchilar o'rtaida raqobat bo'lishi ham dars o'rganishga qiziqishni orttiradi,bolalar sinfsoshlaridan qolib ketmaslik uchun ham o'tilgan mavzuni o'rganishga harakat qiladi.

Bundantashqari,baholash o'quvchilarning maktabga kelishlari,darslarni tushunib javob berishlariga juda katta turtki bo'lib xizmat qiladi. 5 baho olsa,barchadan ota-onasida,o'qituvchisidan maqtov eshitadi va keyingi darsda ham yaxshiroq qatnashishga va ko'proq baho olishga intiladi,shuning uchun boshlang'ich sinflarda baholash tizimini qo'llash darsning eng muhim jihatlaridan biri bo'lishi kerak.

#### Xulosa

Ingliz tili dunyodagi eng ko'p ishlatiladigan tillar ichida 3-o'rinda turadi (Ispan hamda Mandarin Xitoycha tillardan keyin). Yevropa Ittifoqining asosiy tili.Ingliz tili BMTning rasmiy ish yuritish tillaridan biri.Bu tilda yer yuzidagi 400 milliondan ortiq kishi gaplashadi.Bu faktlardan kelib chiqqan holda,shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki,ingliz tilini bolalarga o'rgatishda kelajakda erishishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatlarni nazarda tutgan holda turli usullar yordamida,ularning psixologiyasiga moslashish asosiy jihat ekanligini ta'kidlab o'tish kerak.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

- 1.[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ingliz\\_tili](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ingliz_tili)
- 2.Jalolov, Jamol Jalolovich.Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari(fakultetlari) talabalari uchun darslik / J.J. Jalolov. —Toshkent: O 'qituvchi, 2012. — 432 b.
- 3.Nishanova, Z.T.Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Z.T. Nishanova va boshq. — Toshkent: « O 'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 600 b.



**FRANCE international scientific-online conference:**  
**"SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM"**  
**PART 22, 5<sup>th</sup> FEBRUARY**

4.Tajibayev G.Sh. "Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish" darslik,Namangan, 2019.-  
192 b.